

O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARI VOSITALARIDA TALABALARNING KASBIY KOPITENTLIGINI RIVOJLANTIRISH

Axadova Dildora Hasan qizi

Osiyo xalqaro universiteti, iqtisodiyot va pedagogika fakulteti magistranti

ANNOTATSIYA: *Ushbu maqolada o'qish savodxonligi darslari vositalari orqali talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish masalalari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda o'qish savodxonligining zamonaviy ta'lim tizimidagi o'rni, uning talabalarning kasbiy tayyorgarligini shakllantirishdagi ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, matn bilan ishlash, axborotni tahlil qilish, tanqidiy va mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish orqali talabalarda kasbiy kompetentlikni shakllantirish imkoniyatlari yoritilgan. Maqolada o'qish savodxonligi darslarini kasbiy yo'naltirilgan ta'lim bilan integratsiyalash asosida tashkil etish samaradorligi asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari o'qituvchilar va ta'lim muassasalari uchun amaliy ahamiyatga ega.*

Kalit so'zlar: *o'qish savodxonligi, kasbiy kompetentlik, ta'lim jarayoni, matn bilan ishlash, tanqidiy fikrlash.*

АННОТАЦИЯ: *В данной статье рассматриваются научно-теоретические и практические аспекты развития профессиональной компетентности студентов посредством средств уроков читательской грамотности. В исследовании раскрывается роль читательской грамотности в современной системе образования и ее значение в формировании профессиональной подготовки студентов. Особое внимание уделяется развитию навыков работы с текстом, анализа информации, критического и логического мышления как основным факторам формирования профессиональной компетентности. Обосновывается эффективность организации уроков читательской грамотности на основе интеграции с профессионально ориентированным обучением. Результаты исследования имеют практическую значимость для педагогов и образовательных учреждений.*

Ключевые слова: *читательская грамотность, профессиональная компетентность, образовательный процесс, работа с текстом, критическое мышление.*

ABSTRACT: *This article examines the theoretical and practical aspects of developing students' professional competence through the tools of reading literacy lessons. The study highlights the role of reading literacy in the modern education system and its importance in shaping students' professional training. Particular attention is paid to the development of*

skills such as working with texts, information analysis, critical and logical thinking as key components of professional competence. The effectiveness of organizing reading literacy lessons based on integration with professionally oriented education is substantiated. The research findings have practical significance for teachers and educational institutions.

Keywords: *reading literacy, professional competence, educational process, text analysis, critical thinking.*

KIRISH: Bugungi kunda globallashuv, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi hamda mehnat bozorida raqobatning kuchayishi ta'lim tizimi oldiga yangi va muhim vazifalarni qo'yimoqda. Zamonaviy ta'limning asosiy maqsadi nafaqat talabalarga nazariy bilimlarni yetkazish, balki ularning mustaqil fikrlash, axborotni tahlil qilish, muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish hamda kasbiy faoliyatda samarali ishlashga tayyor bo'lgan kompetent mutaxassislarni tayyorlashdan iboratdir. Shu nuqtayi nazardan, talabalarda kasbiy kompetentligini rivojlantirish masalasi ta'lim jarayonining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Kasbiy kompetentlik shaxsning kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka, tajriba hamda shaxsiy fazilatlar majmuini ifodalaydi. Bu kompetentlik talabaning o'z mutaxassisligi doirasida axborotni anglash, tahlil qilish, baholash va amaliyotda qo'llash qobiliyatlari bilan chambarchas bog'liqdir. Mazkur jihatlarda esa bevosita o'qish savodxonligi bilan uzviy aloqador bo'lib, ta'lim jarayonida ularni uyg'un holda rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'qish savodxonligi zamonaviy ta'lim tizimida shaxsning turli format va mazmundagi matnlarni tushunish, talqin qilish, tahlil etish hamda ulardan maqsadli va samarali foydalanish qobiliyati sifatida talqin etiladi. Bugungi axborotlar oqimi sharoitida talaba faqatgina matnni o'qish bilangina cheklanib qolmasdan, undagi asosiy g'oyani aniqlay olishi, muallif pozitsiyasini baholashi, fakt va xulosalarni solishtirishi hamda kasbiy vaziyatlarga mos ravishda qo'llay bilishi lozim. Shu bois o'qish savodxonligi darslari talabalarining fikrlash doirasini kengaytirish va kasbiy kompetentligini shakllantirishda muhim pedagogik vosita sifatida namoyon bo'ladi.

So'nggi yillarda ta'lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuvning keng joriy etilishi o'qish savodxonligi darslariga bo'lgan talabni yanada oshirdi. Ayniqsa, kasbiy yo'naltirilgan ta'lim sharoitida o'qish savodxonligi darslari orqali talabalarda kasbiy matnlar bilan ishlash, mutaxassislikka oid axborotlarni anglash, tahlil qilish va ulardan samarali foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish dolzarb masalaga aylandi. Bu esa o'qish savodxonligi darslarini an'anaviy yondashuvdan chiqib, kasbiy kompetentlikni rivojlantirishga xizmat qiladigan mazmun va metodlar asosida tashkil etishni taqozo etadi.

Shu bilan birga, amaliyotda o'qish savodxonligi darslarining imkoniyatlaridan talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda yetarli darajada foydalanilmayotgani, dars mazmunining ko'pincha nazariy yo'nalishda qolib ketayotgani kuzatiladi. Bu holat o'qish savodxonligi darslarini kasbiy faoliyat bilan bog'lash, real kasbiy vaziyatlar asosida tashkil etish hamda interfaol metodlardan foydalanish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi o'qish savodxonligi darslari vositalari orqali talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning nazariy asoslari va amaliy imkoniyatlarini tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot jarayonida o'qish savodxonligi va kasbiy kompetentlik tushunchalarining mazmuni yoritilib, ularning o'zaro bog'liqligi asoslab beriladi hamda ta'lim jarayonida samarali qo'llash yo'llari ko'rsatib beriladi.

1. O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARI ORQALI TALABALARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINING ASOSLARI

O'qish savodxonligi darslari talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda muhim pedagogik vosita hisoblanadi. Ushbu darslar orqali talabalar matn bilan ishlash, axborotni anglash, tahlil qilish, muhim va ikkilamchi ma'lumotlarni ajrata olish hamda olingan bilimlarni kasbiy faoliyatda qo'llash ko'nikmalarini shakllantiradilar. O'qish savodxonligi darslarining asosiy maqsadi talabalarda faqatgina matnni o'qish emas, balki uning mazmun - mohiyatini chuqur anglash, muallif g'oyasini tushunish va kasbiy vaziyatlarga mos xulosalar chiqarish qobiliyatini rivojlantirishdan iboratdir.

Mazkur metodika jarayonida matnlar talabalarining kelajak kasbi bilan bog'liq holda tanlanib, ularning professional fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi. O'qish savodxonligi darslarida qo'llaniladigan metod va usullar talabaning mustaqil fikrlashini faollashtiradi hamda kasbiy kompetentlikning shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

1.1. Zamonaviy ta'lim jarayonida o'qish savodxonligining o'rni

Zamonaviy ta'lim jarayonida o'qish savodxonligi talabalarining intellektual va kasbiy rivojida muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi axborotlar oqimi sharoitida talaba turli mazmundagi matnlar bilan ishlay olishi, ularni tahlil qilishi va o'z kasbiy faoliyatiga moslashtira olishi zarur. O'qish savodxonligi darslari orqali talabalar ilmiy, rasmiy va kasbiy matnlarni tushunish, ularni solishtirish va baholash ko'nikmalarini egallaydi.

Shuningdek, o'qish savodxonligi darslari talabalarda tanqidiy fikrlash, muammoli vaziyatlarni aniqlash va ularni hal etish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Matn asosida savol-javoblar, muhokamalar va tahliliy topshiriqlar talabalarining faol ishtirokini ta'minlab, ularni mustaqil fikr yuritishga undaydi. Bu esa zamonaviy ta'lim talab qiladigan asosiy kompetensiyalardan biri hisoblanadi.

1.2. O'qish savodxonligi darslarida kasbiy yo'naltirilgan metodik tamoyillar

O'qish savodxonligi darslarini tashkil etishda kasbiy yo'naltirilganlik tamoyiliga amal qilish muhim hisoblanadi. Dars jarayonida tanlanadigan matnlar talabalarning mutaxassisligiga mos bo'lishi, ularning kasbiy qiziqishlarini oshirishi lozim. Matnlar orqali talabalarda mas'uliyat, kasbiy etikaga rioya qilish, muloqot madaniyati va jamoada ishlash ko'nikmalari shakllantiriladi.

Shuningdek, darslarda talabalarni faqat tinglovchi sifatida emas, balki faol ishtirokchi sifatida jalb etish muhim ahamiyatga ega. Interfaol metodlar, muammoli savollar va amaliy topshiriqlar talabalarning mustaqil fikrlashini faollashtiradi. Ko'rgazmalilik, real kasbiy vaziyatlar asosida tuzilgan matnlar va rolli o'yinlar talabalarning o'qish savodxonligini yanada mustahkamlaydi.

1.3. Oliy ta'limda o'qish savodxonligi orqali kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning nazariy-metodik tamoyillari

Oliy ta'limda o'qish savodxonligi darslari talabalarda tahliliy fikrlash, umumlashtirish va xulosa chiqarish qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltiriladi. Bu jarayonda o'qituvchi tayyor xulosalarni bermasdan, balki savollar va topshiriqlar orqali talabalarning fikrlash jarayonini boshqaradi. Talabalar matn mazmunini kasbiy faoliyat bilan bog'lab tahlil qiladilar.

Shuningdek, talabalarning individual qobiliyatlarini hisobga olish muhimdir. Kimdir matnni mantiqiy tahlil qilishga moyil bo'lsa, boshqalarida ijodiy yondashuv kuchli bo'lishi mumkin. Guruhli ishlash, bahs-munozaralar, loyiha ishlari va esse yozish kabi metodlar talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

2. O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARI ORQALI TALABALARNING FIKRLASH VA KASBIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH

O'qish savodxonligi darslarida turli mazmundagi matnlardan foydalanish talabalarning fikrlash va kasbiy qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Matnlar asosida olib borilgan tahlillar talabalarning mantiqiy, tanqidiy va ijodiy fikrlashini faollashtiradi. Kasbiy yo'naltirilgan matnlar esa talabaning kelajakdagi faoliyatiga tayyorgarligini mustahkamlaydi.

Matn asosida beriladigan ochiq savollar va amaliy topshiriqlar talabalarning mustaqil mulohaza yuritishiga imkon yaratadi. Bu jarayonda talabalar o'z fikrlarini asoslab berishga, dalillar keltirishga va xulosalar chiqarishga o'rganadilar.

2.1. Kasbiy matnlarni tahlil qilish orqali mantiqiy fikrlashni rivojlantirish

Kasbiy matnlarni tahlil qilish jarayonida talabalar muammoni aniqlash, sabab-oqibat munosabatlarini tushunish va optimal yechimlarni topishga harakat qiladilar. Nima uchun

aynan shunday qaror qabul qilinganligi, uning qanday natijalarga olib kelishi haqida fikr yuritish mantiqiy tafakkurni rivojlantiradi.

Matnlar asosida taqqoslash, umumlashtirish va baholash kabi topshiriqlar talabalarning kasbiy dunyoqarashini kengaytiradi. Bu esa ularning kelajakdagi professional faoliyatida muhim ahamiyatga ega.

2.2. Ijodiy topshiriqlar yordamida kasbiy tasavvurni kengaytirish

Ijodiy topshiriqlar talabalarning kasbiy tasavvurini kengaytirishga xizmat qiladi. Masalan, matn asosida kasbiy vaziyat yaratish, muammoni hal etish bo'yicha takliflar berish yoki mutaxassis nuqtayi nazaridan xulosa yozish kabi topshiriqlar talabalarni ijodiy fikrlashga undaydi.

Bu jarayonda talabalar mantiqiy va ijodiy tafakkurni uyg'unlashtirib, kasbiy kompetentlikni yanada mustahkamlaydilar.

3. O'QISH SAVODXONLIGI ASOSIDA OLIB BORILGAN AMALIY TAJRIBALAR VA ULARNING NATIJALARI

Amaliy tajribalar davomida o'qish savodxonligi darslari kasbiy yo'naltirilgan matnlar asosida tashkil etildi. Talabalar bilan matnni tahlil qilish, muammoli vaziyatlarni muhokama qilish va ijodiy topshiriqlar bajarildi. Natijada talabalarning darsga bo'lgan qiziqishi sezilarli darajada oshdi.

Tajriba jarayonida talabalar erkin fikr bildirish, mustaqil xulosa chiqarish va kasbiy masalalarni tahlil qilish ko'nikmalarini egallaganliklari kuzatildi.

3.1. Tajriba natijalariga asoslangan metodik xulosalar va tavsiyalar

Olib borilgan tajribalar shuni ko'rsatdiki, o'qish savodxonligi darslarida tahliliy va ijodiy yondashuvning uyg'unligi talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Kasbiy yo'naltirilgan matnlar va interfaol metodlar dars samaradorligini oshiradi.

Tajriba natijalariga asoslanib quyidagi metodik tavsiyalar beriladi: o'qish savodxonligi darslarida kasbiy mazmundagi matnlardan foydalanish; savol va topshiriqlarni talabalarning mustaqil fikrlashiga yo'naltirish; tahlil, munozara va ijodiy ishlarni o'zaro bog'liq holda tashkil etish; har bir talabaning erkin fikr bildirishiga sharoit yaratish.

Xulosa o‘rnida shuni takidlashimiz joizki, o‘qish savodxonligi darslari talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda muhim pedagogik ahamiyatga ega. Kasbiy yo‘naltirilgan matnlar bilan ishlash, tahliliy va ijodiy topshiriqlarni uyg‘unlashtirish talabalarning mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish hamda asosli xulosa chiqarish ko‘nikmalarini shakllantiradi. O‘qish savodxonligi darslarini zamonaviy metodlar asosida tashkil etish talabalarning kasbiy tayyorgarligini oshirib, ularning kelajakdagi professional faoliyatida samarali ishtirok etishiga xizmat qiladi

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Karimov S. O‘qish savodxonligi va kompetensiyaviy yondashuv asoslari. – Toshkent: Fan, 2020.
2. Qosimova K., Matchonov S. Ona tili va o‘qish savodxonligini o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Noshir, 2021.
3. Abdullayeva M. Ta’lim jarayonida tanqidiy va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
4. Ismoilov R. Talabalarda kasbiy kompetentlikni shakllantirish masalalari. – Toshkent: Ma’naviyat, 2019.
5. G‘afforova T. Matn bilan ishlash va o‘qish savodxonligi. – Toshkent: Noshir, 2021.
6. Zunnunov A. Matn tahlili va talqin asoslari. – Toshkent: Universitet, 2016.
7. Jalolov J. Til, tafakkur va kompetensiya rivoji. – Toshkent: O‘qituvchi, 2015.
8. Xudoyberganova D. O‘qish savodxonligi asosida ta’lim samaradorligini oshirish. – Toshkent: Fan, 2019.
9. Satorov A. Zamonaviy ta’limda kompetensiyaviy yondashuv. – Toshkent: Universitet, 2018.
10. Matchonov S. O‘qish savodxonligi darslarida nutq va tafakkurni rivojlantirish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020.
11. To‘xtayeva H. Oliy ta’limda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
12. Karimova S. Kasbiy matnlar va tafakkur madaniyati. – Toshkent: Fan, 2021.
13. Akhmedov O. O‘qish savodxonligi orqali kasbiy fikrlashni rivojlantirish. – Toshkent: Fan, 2018.